

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM TARBIYAGA OID ASARLARI
MA'NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI**

Abdualiyeva Jasmina Abduqaxxon Qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Talabasi

Annotatsiya: Maqolada sharq allomalarining ta'lif tarbiya, odob –axloq masalalaridagi qarashlari , asarlarining tahlili ,pedagogik g'oyalari va bugungi kunda yosh avlodni yetuk qilib yetishtirishda yangi tarbiya usullari va vositalalari ochib berilgan.

Kalit So'zlar: Tarbiya, axloq,mudarris, madrasa,barkamol inson , insonparvarlik,pedagogika,qoida, tafakkur,islom,qadriyat,madaniyat,ma'naviyat.

Bilamizki , o'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi, boy merosi, o'chmas qadriyatlari, asrlar davomida shakllanib kelgan ta'lif tarbiyasiga ega. Xalqimizdagи mustahkam iymon –e'tiqod , mehnatsevarlik, insonparvarlik , umuminsoniy fazilatlarning shakllanganligi bunga yaqqol misoldir .Ammo bunday ma'naviy-axloqiy fazilatlar o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai , ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir.Aynan sharq mutafakirlarining ta'lif-tarbiyaga , ta'limga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga katta hissa qo'shgan Ma'lumki har bir avlod o'zidan oldingi ajdodlari bilan uzviy aloqada va bog'lanishdadir .Ifodali qilib aytganda , afsonaviy Antey oyog'i yerga tekkanida jismiga yangi kuch-quvvat quyilib ketganidek,har bir avlod o'zidan oldin o'tganlarning ijtimoiy va ma'naviy tajribalariga tayanib kamol topadi.Yana ham boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak yangi avlod o'zidan oldingilar tomonidan qo'lga kiritilgan ishlab chiqarish qurollariga malakasiga , ilm-fan , texnika adabiyot , san'at, axloq- odob tamoyillari me'yorlari majmuasining bir qadar tayyor binosiga kirib keladi.Bejizga birinchi

Prezidentimiz I.A.Karimov :"Hozirgi kundagi eng dolzarb vazifamiz – jamiyatimiz a'zolarini , avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish ularning qalbiga milliy mafkura , o'z vataniga mehr, sadoqat, tuyg'ularini uyg'otish o'zligini anglash , milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan va ajdodlar merosini o'rnatishdan iboratdir" deya ta'kidlab o'tmaganlar .Sirasini aytganda ,azaliy qadriyatlarning zamondoshlarimiz, xususan yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatiga qiziqish xalq og'zaki ijodida , Qur'oni Karim va Hadislarda , O'rta Osiyolik mashhur mutafakirlar va donishmandlar- Muso al-Xorazmiy,Ahmad Farg'oniyb , Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib asarlarida, shuningdek , "Temur tuzuklari"da ,Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy asarlarida hamda XIX asrning o'rtalarida ijod qilgan Ahmad Donish ,Furqat, Muqimiyy va boshqalarning kitoblarida , XIX asrning

oxirlarida va XX asrning boshlarida jadidlar harakatida umuminsoniy qadriyatlarga katta e'tibor berilgan.

F.Engel ko'rsatib o'tganidek ,Yevropa uyg'onish davrini g'oyaviy jixatdan tayyorlashda va oxir oqibatda XVIII asr materializmini shakllantirishda muxim rol o'ynagan qomusiy olim Farobiyning pedagogik qarashlari juda muhim ro'l o'ynaydi.CHunonchi uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki , o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg'a ketgandir.Farobiyning quyidagi pedagogik g'oyalari yoshlarga muhim manba bo'lib bo'lib xizmat qiladi.

- 1.Ta'lif so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.
2. Tarbiya- esa amaliyot ,ish-tajriba bilan ,ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.
- 3.Har kimki ilm,hikmatni desa , uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin.
4. Inson yaxshi tarbiya ko'rмаган va turmushda yaxshi tajriba ortirmagan bo'lsa , u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi.Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.
- 5.Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi.

- 1.Fikriy fazilat
- 2.Xulqiy.

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib,aqlilik,donolik, fahm-farosatlilik zehnllikdan iborat.xulqiy fazilat –intiluvchi quvvatga kirib iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi.Yomon fazilatlar razillikdir deya fikrini xulosalaydi. Aynan o'zining "Fozil odamlar shahri "asarida esa tarbiyaga shunday ta'rif beradi:"Daraxtning kamolga yetgani mevasidan bilinganidek baxt-saodat yaxshi xulqlar bilan mukammal bo'ladi".Farobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi .U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi.Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir.CHunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarini o'zicha bila olmaydi . Unga buning uchun o'qituvchi lozim. Farobiy ta'lif-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali bunga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. .Demak, ta'liftarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Yana bir yirik allomalardan biri buyuk mutafakkir Alisher Navoiy axloqning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida shunday fikr yuritadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod baxramand bo'ladi.Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi".Demak , yaxshi xulq asosi – odob Navoiy

tahsilida barcha insoniy hislatlarning boshlanishi sanaladi. Alloma o'z davrida ilm olish tamoyillarini ham yoritib bera olgan. Xususan bilim olish jarayonida barcha fanlar asoslarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydi. Shu bois alloma turli fanlar yo'naliishlarida yetuk bilimlarga ega va xalq o'tasida alohida hurmat -e'tiborga ega bo'lgan olimu fozillarni yig'ib, ularning yordami bilan ilm-fanning rivojini ta'minlashga e'tiborni qaratadi. Ana shu maqsad yo'lida Samarqandda o.'zining shaxsiy mablag'l evaziga

"Ixlosiya" madrasasini barpo etadi hamda uning yonida maktab ochadi. Madrasa va maktab faoliyatini shaxsiy mablag'l hisobiga yo'lga qo'yadi. Madrasada o'ziga xos tartib -qoidalarga muvofiq faoliyat yuritilgan. Shuningdek, talabaning ilm-fan sirlarini mustaqil ravishda yoki yetuk ilm sohiblarining ta'limi asosida o'zlashtirishlariga ijozat beradi. O'zining "Mahbub ul-qulub "asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi urug' sochib hosilidan baha olmagan kishiga qiyoslanishini aytib o'tadi. Asarlarida zamonaviy pedagogika fani asoslari qatorida muhim o'rinni tutuvchi omil o'zo'zini tarbiyalash masalasining mohiyati ham yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi hamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Yuqorida bayon etilgan fkrlar mazmunidan anglanadiki, alloma o'z davrida ilm olish sirlarini to'g'ri ko'rsatib, ta'lim tizimida quyidagilarni aks ettira olgan. Maktab yoki madrasada tahsil olish;

Olim, hunarmand yoki san'atkori larga shogirdtushish asosida ta'lim olish;

Mustaqil ravishda ilm o'rganish. Mutafakkir yoshlarga chuqur bilim hamda axloqiy tarbiya berishda muallimning roli beqiyosdir. Muallimlik faoliyatini olib boorish o'ta ma'sulyatli va sharafli, ayni vaqtda murakkab ish sanaladi. Ushbu faoliyatni samarali yo'lga qo'yish mudarris hamda ustoz-murabbiylarning muayyan talablarga to'laqonli javob berib olishlariga bog'liq. Eng muhim talab- ularning chuqur bilim m ining hurmati qay darajada yuqori baholasa, uning shaxsi va faoliyatiga nisbatan talabni shu darajada oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarning bilimlli, fozil, dono, kamtar va ma'naviy jihatdan pok bo'lishlarini talab etadi. Bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: "Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgizmasa va olg'irlk uchun dars berishga havas ko'rgizmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi jatta v pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rinni bo'lmasa. Yaramaslikdan qo'rqa va nodonlikdan qochsa, nainki: o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa: ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmslik unga qoida va odad bo'lib qolsa. Bu mudrris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir" - deya ustozlar va bilim olish niyatida bo'lgan har bir yoshga o'zining pedagogik qarashlari va tavsiyasini berib o'tadi.

Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqatlarining o'zi unga

o'rgatur.Undoqkim debdurlar, ota-onal tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalardur.Ming yilga yaqin davrdan beri xalqni, ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda amaliy qo'llanma bo'lib ekelayotgan"Qobusnomा" asari esa hozirgi o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy kamolotga yetkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.Aynan shu asarda keltirib o'tilgan ,yuqoridagi satrlar muallifi Kaykovus esa ota – onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash , insonlar orasidagi muomala odobi , ularning o'zaro axloqiy munosabatlari , haqorat,qo'pollik kabi yomon odatlarning ma'sulyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg'u beradi.Kaykovus inson tarbiyasiga katta e'tibor bergen, axloqiy yuksak insonni tarbiyalash mezonlarini ham ko'rsatib o'tgan. U axloqlikning birinchi belgisi suhandonlik deb biladi, suhandon notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi.U Pifagor aytgan quyidagi 10 xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi.Bular:o'zidan zo'r kishi bilan urushmaslik; riyokor ikkiyuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik;yolg'onchi kishi bilan do"st bo"lmaslik, yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik,baxil bilan suhbatda bo'lmaslik,g'ayr dushman kishi bilan sharob ichmaslik,xotinlar bilan bir yerda o'tirmaslik,,Ikishilarga sir aytmaslik,biror kishi aybingni aytса, shu aybni yo'qotishga harakat qilish, biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik,muxtoj bo'lgan odamni gina,qahr bilan qo'rqitmaslik,gunohkorning gunohini avf etish kichiklarga mehribon bo'lish,bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday xatti-harakatlar duch keladi. Asardagi e' tiborga molik jihat shundaki unda 'Quron' va "Hadis"lardagi talablardan kelib chiqqan holda o'zining nuqtai nazarini bayon qiladi:" o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota –onang haqida shunday bo'lgil, nedinkimsen ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shunday ish qilur,chunki odam mevaga, ota[ona daraxtga o'xshaydiur",deydi. Asarda ilgari surilgan g'oyalar nafaqat o'sha zamon uchun balki hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mana shunday mangu allomalardan biri Burxoniddiy

Marg'inoniydir.Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon,vijdon, burch,insoniylik,xususidagi g'oyalari shaxsn har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" Biz ta'lif va tarbiya tizimining barcha bo'g'lnlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otaonalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" deya ta'kidlab o'tdi.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxtisaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Otabobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga egadir.

Tan olish lozimki, hozirgi kunda ayrim yoshlarimiz o'rtasida boy o'tmishimizni, bundan bir necha asrlar muqaddam yashab, ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rgsnishga qiziqish unchalik yuqori emas ligi sezilmoqda. Ayniqsa, asrlar mobaynida yaratilgan ming-minglab qo'lyozmalarni tadqiq qilish jarayoni juda sekin olib borilmoqda. Afsuski, mustaqilliq yillarda e'lon qilingan mumtoz adabiyot namunalariga ham Qaziqish biroz susaygani kuzatish mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, barkamol insonni tarbiyalash borasida hali muammolar bisyor, biz ayrim paytlarda tezkor davr ruhiga berilib, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kelajagimiz egalari tarbiyasida bir yoqlamali yo'l tutayapmiz. Ularga zamonaviy bilimlar bi'yicha ta'lif berishga zo'r berib, o'tmishdan saboq berishda oqsoqlikkha yo'l qo'ymoqdamiz. Keyingi yillarda o'rtta va oliy ta'lif tizimi dasturlarini ko'zdan kechirishda bebaho merosimizga e'tibor bir oz bo'lsada susayganini ilg'ab olish mumkin. Zotan, Yurtbishimiz o'zlarining har bir nutqida bu masalaga katta e'tibor berib, "Ma'naviyat taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topish uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak", deya ta'kidlab o'tdi. Ko'rinish turibdiki, yoshlarni ajdodlar merosiga, madaniyatiga, qadriyatlariga nisbatan hurmat bilan qarash, ularni e'zozlash, qadrlash sayqal berish va boyitishga o'rgatishimiz zarur. Chunki har bir millat yoshlari avlodlar

vorisligiga boshqa millat , xalqlar yoshlariiga xos bo'lgan, ma'qul va mos bo'lgan mushtarak axloqiy , siyosiy -ijtimoiy va g'oyaviy ramzlarni anglab oladi .Shunday qilingandagina , yigit-qizlar ongida mustaqillik ma'naviyati –

"Kecha kim ediku, bugun kim bo'ldik",degan savolga javob beradigan tushunchalar , biz o'zimizning buyuk avlodlarimizni yetishtirgan xalqimiz , o'z davlatchiligimiz tarixiga an'analariga, qadimiy sivilizatsiyani shakllantirgan qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va o'zimizning etnik birligimizga sodiq hamda sabr-toqatli xalamiz,degan qarashlar shakllanadi. Xulosa qilib aytganda ilm-fan , ma'rifat,ma'naviyat ,ta'lif sohasini chuqur egallashimiz uchun o'tganlar merosini bilishimiz va o'rganisimiz darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UMUMIY PEDAGOGIKA .-“FAN VA TEKNOLOGIYA “2018 .yil
2. YOSHLAR , ISTIQLOL,MAFKURA XUDOYQUL TO'RAEV ZARQALAM TOSHKENT 2004 YIL
3. ABU NASR FAROBIY “FOZIL ODAMLAR SHAXRI” TOSHKENT XALQ MEROsi ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROsi NASHRIYOTI.
4. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI
5. DARSLIKLARNING TARIXIY TARAQQIYOT YO'LI VA BUGUNGI KUNDA TA'LIM -TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI . R.X.JO'RAEV. SH.E.NEMATOV TOSHKENT 2010
6. I.A.KARIMOVNING YUKSAK MA'NAVIYAT YENGILMAS KUCH “T .MA'NAVIYAT 2008
7. M.SHOXADJYAEV.BURXONIDDIN MARG'INONIYNING AXLOQIY - HUQUQIY TARBIYAGA OID QARASHLARI.AVTOREFERA .T.2006 Y.
8. SH.MIRZIYOYEV O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANLIGINING 24 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMIDAGI MA'RUZASI TA'LIM JURNALI .2017 YIL 5 SON